

## **TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMI RAQABOTBARDOSH KADRLAR TAYORLASHDA MUHIM OMIL**

**Hakimov Nazar Hakimovich**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti, "Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası professori  
E-mail: [hakimovnazar@rambler.ru](mailto:hakimovnazar@rambler.ru)*

**Annotatsiya.** Maqolada jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida raqobotbardosh kadrlar tizimini yanada takomillashtirish jarayoni o'rganilgan. Shu munosabat bilan talabalar mustaqil ta'limining o'rnini tadqiq qilingan. Muallif raqobotbardosh kadrlarning yangi korpusini shakllantirishda talabalar mustaqil ta'limining mohiyatini va zarurligini ochib bergan. Shuningdek, malakali bakalavr va magistrlar tayyorlashda muhim omil hisoblangan universitet axborot resurs markazi faoliyatiga innovatsion yondoshuv zaruriyati ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar.** Talaba, mustaqil ta'lim, kadrlar, raqobat, jamiyat, universitet, axborot, resurs markazi.

### **KIRISH**

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichiga kirish jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga raqamli iqtisodiyot talablarini joriy qilish va raqobotbardosh kadrlar tayyorlash vazifasini vujudga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi tobora murakkablashib borayotgan global jarayonlar talablariga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilishi lozim. Malakali kadrlar tayyorlash ishi ana shu jarayoning muhim vazifasidir. Bunday sharoitda oliy o'quv yurti faoliyatining muhim qismi bo'lgan talabalar mustaqil ta'limi mazmuni, tashkil qilinishi va amalga oshirilish mexanizmlari takomillashishi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar mustaqil ta'limi mazmunining murakkablashuvi oliy ta'limdagi o'tkazilayotgan islohotlar, o'quv rejasidagi tub o'zgarishlar, o'quv rejasiga tanlov fanlarning kiritilishi va pirovard natijada kredit-modul tizimining joriy qilinishi bilan bevosita bog'liqdir. Kredit-modul tizimining o'quv jarayoniga kiritilishi chuqurlashayotgan bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan, raqobotbardosh kadrlar tayyorlanishiga xizmat qiladi. Mamlakat ijtimoiy tizimlari va iqtisodiyotining jadal rivojlanish strategiyasi kadrlarning yangi O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti talablariga mos bo'lgan, jamiyatning jadal rivojlanishi jarayoniga yechim topa oladigan korpusini shakllantirish, tayyorlash vazifasini ilgari surdi.

### **METODOLOGIYA**

Ushbu ilmiy muammoning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezideni Sh.M.Mirziyoevning asarlari, Farmonlari, Qarorlari tashkil qiladi. Shuningdek oliy ta'lim transformatsiyasiga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha xorijiy va O'zbekistonlik olimlarning asarlari muhim rol o'ynadi. Maqolani nashrga tayyorlashda xalqaro tashkilotlarning mamlakatimiz oliy ta'limi rivojlanishi, kadrlar tayyorlash tizimiga kredit modul tizimining kiritilishi bo'yicha xulosalari muhim manba bo'ldi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muasasalarida kadrlar tayyorlash tizimining Yevropa kredit modul tizimiga o'tishi munosabati bilan talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va mohiyatiga, uni amalga oshirish mexanizmlariga bag'ishlangan nashrlar vujudga keldi. Jumladan Toshkent amaliy fanlar universiteti professorlari A.Umarov va N.X.Hakimovlar "Talabalar mustaqil ta'limi

monografiyasini nashr qildilar.<sup>1</sup> Ushbu tadqiqotda kredit modul tizimi kiritilishi munosobati bilan, oliy ta'lim tizimida bo'lajak bakalavrlar va magistrilar tayyorlash jarayonining tubdan o'zgarganligi ta'kidlanadi."Mavzuga doir nashr qilingan ishlar qatoriga: "Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish. O'quv uslubiy majmua"<sup>2</sup>sini, Umarov A., "Mustaqil ishlay olish talabani yetuklikka yetaklaydi"., O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit modul tizimi:asosiy tushunchalar va qoidalar. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma., Umirdinov A. "Ilmiy tarjimalarsiz rivojlanish bo'lmaydi" maqolasini keltirish mumkin<sup>3</sup>.

## ASOSIY QISM

Davlatimiz rahbari ijtimoiy sektor masalalariga bag'ishlangan selektor majlisidagi nutqida ta'kidladiki: "Talabalarning mustaqil ishlashi uchun muhit barcha oliygohlarda ham birdek namunali tashkil etilmagan. Aksariyat kollej va texnikumlar ham, oliygohlar ham 3 ish beruvchilar talabi bilan hisoblashmaydi. Ayrimlarida darslik va adabiyotlar yetishmaydi, bori ham bugungi talablarga javob bermaydi"<sup>4</sup>. Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida malakali kadrlar tayyorlashning takomillashuvi uchun uning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning ta'lim olish huquqi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 50-moddasida ta'kidlanganki: "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi."<sup>5</sup>. Demokratik va huquqiy, dunyoviy, ijtimoiy davlat taraqqiyotidagi, inson ongidagi o'zgarishlar, ta'limdagi jarayonlarning yangi O'zbekiston strategiyasi bilan bog'liqligini hisobga olib 2021-yilda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunning 31-moddasida qayd etilganki, "Nodavlat ta'lim tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun zarur shart sharoitlar yaratish va yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar va boshqa kadrlarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi. Nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlari bo'yicha o'qitish ta'lim oluvchi yoxud uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari va nodavlat ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan, o'qitish muddatlari, shartlari va to'lovlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa shartlar belgilanadigan shartnoma asosida amalga oshiriladi"<sup>6</sup>. Ushbu huquqiy hujjatlarga asoslanib, mamlakatimizda oliy ta'limda universitetlarning yangi avlodi – xususiy universitetlar vujudga keldi. Shu jumladan Toshkent amaliy fanlar universiteti 2021-yilda tashkil etildi. Universitet O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan 2021-yil 11-dekabrda berilgan litsenziyaga egadir. Universitet ushbu huquqiy hujjatga asoslanib, 2022 yilning 14-iyunida o'z faoliyatini boshlagan. Bugungi kunda universitet 12 yo'nalishda, jumladan iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya hisobi va audit, kompyuter muhandisligi, pedagogika va psixologiya, chet tili, o'zbek tili va adabiyoti, tarix, maktabgacha ta'lim, bank ishi, axborot xavfsizligi, multimedia texnologiyalari, informatika va matematika mutaxassisliklari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlamoqda. Ta'kidlash lozimki, Toshkent amaliy fanlar universitetida kadrlar tayyorlash xalqaro andozalar darajasida olib borilmoqda. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida talabalarning yuqori malakaga ega bo'lgan kadrlar sifatida shakllanishi, ya'ni malakali

<sup>1</sup> Umarov A.V., Hakimov N.H. Talabalar mustaqil talimi. Monografiya. Toshkent. 2024- 250 bet.

<sup>2</sup> Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish. O'quv uslubiy majmua. – Toshkent, 2020. – 61 bet.

<sup>3</sup> Umarov A., Mustaqil ishlay olish talabani yetuklikka yetaklaydi. 2020-yil 30 dekabr. <https://yuz.uz/news/mustaqil-ishlay-olish-talabani-yetuklikka-yetaklaydi>., O'rinov V. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit modul tizimi:asosiy tushunchalar va qoidalar.Qo'llanma.El-yurt umidi jamg'armasi va Respublika Oliy Ta'lim Kengashi bilan hamkorlikda.2020-y.-64 b., Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TKTI, 2020. - 120 bet., Umirdinov A. Ilmiy tarjimalarsiz rivojlanish bo'lmaydi. <https://kun.uz/news/2022/06/18/ilmiy-tarjimalarsiz-rivojlanish-bolmaydi>.<sup>3</sup>

<sup>4</sup> 1Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-fevralda ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan selektor yig'ilishidagi nutqi. //Prezident.uz

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 50- modda. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. 31-modda. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, N 9.

oliy ta'lim olishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining yangi avlodi, xususi universitetlar vujudga keldi. Mamlakatimizda o'rta maktablar, akademik litsey va kasb hunar kollejlari, texnikumlarni tamomlayotgan bitiruvchilarning oliy o'quv yurtlariga qabul qilinishi uchun imkoniyatlar kengaytirildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'qishning dastlabki kunlaridayoq talabalikka qabul qilingan abituriyentlar universitetdagi muhim bo'lim – axborot resurs markazi faoliyati bilan tanishtiriladi. Birinchi kurs talabalarining axborot-resurs markazi faoliyati bilan tanishish jarayonida, ularga talabalar mustaqil ta'limi haqida dastlabki, umumiy tushuncha beriladi. Hozirgi davrda axborot-resurs markazi talabalar faoliyatida ilmiy, metodik, o'quv materiallarining asosiy manbalari saqlanadigan bo'lim rolini bajaradi. Shuning uchun fakultet dekanati tomonidan, birinchi kurs akademik guruhiga birlashtirilgan tyuter, axborot-resurs markazi xodimi hamkorligida talabalar mustaqil ta'limiga mo'ljallangan, ilmiy, uslubiy adabiyotlar saqlanadigan zallarning ish jarayoni bilan tanishtiriladi. Ta'kidlash lozimki, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini zamonaviy axborotni qabul qilib olish texnikasi hisoblangan kompyuter texnikasisiz tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun axborot resurs markazlarida yangi avlod kompyuterlari bilan jihozlangan o'quv zallari vujudga keltirilgan. Talabalarga malakali mutaxassislar tomonidan kompyuter texnikasidan uning serverlari bazasida – elektron xotirasidagi saqlanayotgan, kafedralar tomonidan joriy o'quv yilida yangilangan ilmiy, metodik hamda talaba tanlagan mutaxassislikka doir axborotlar bazasi haqida ma'lumotlar taqdim qilinadi. Talabalarga dastlabki uchrashuvdayoq, bo'lajak mutaxassislikni mukammal egallashda ilmiy, metodik manbalar, jumladan fanlarga doir darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy to'plamlar, xalqaro, respublika doirasida o'tkazilgan konferensiya materiallari ustida mustaqil ishlash natijasida erishish mumkinligi uqtiriladi. Yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayoni xorijiy mamlakatlar yetakchi universitetlari bilan ijodiy aloqani, xorijiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar bilan tizimli tanishish zaruriyatini ham vujudga keltirdi. Talabalar mustaqil ta'limi o'z mazmuniga ko'ra birinchi kursdan boshlanib, magistratura bosqichini ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun universitetda talabalar mustaqil ta'limi bajarilishi va uning natijalari professor-o'qituvchilar tomonidan nazorat qilinishining uzluksiz tizimi yaratilgan. Professor-o'qituvchilarning talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishdagi muhim vazifasi, ularni oliy ta'lim muassasalari faoliyati tartibga soluvchi, huquqiy hujjatlar, ulardan foydalanish zaruriyatini tushuntirishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, universitet faoliyati, ya'ni malakali mutaxassislar tayyorlash uchun, talabalar mustaqil ish ta'limini bajarishning zarur jarayon hisoblanadi va mustaqil ish talaba tomonidan belgilangan muddatda bajarilishi lozimdir. Yuqoridagi holatni hisobga olib, talabalar mustaqil ta'limning shakllari, ularni bajarishning optimal variantlari mavjudligini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Har bir talabaning dars jadvalida keltirilgan yoki uning o'zi tanlagan darsga o'z vaqtida tayyorlangan holda shaxsiy konspekt bilan ishtirok etishi zarur. Talabaning ushbu fandan o'tkazilayotgan ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotga, seminarga tayyorgarlik ko'rib kelishi talab qilinadi. Albatta, talabaning o'tgan dars davomida, professor o'qituvchidan olgan topshirig'i, ya'ni mustaqil ta'lim rejasini bajarganligi muhim rol o'ynaydi. Talabaga birinchi darsdayoq, mustaqil bajariladigan ish uning kelajakda malakali kadr bo'lib shakllanishidagi asosiy omillardan biri ekanligini uqtirish kerak. Shuning uchun talabalarining universitet bilan tanishishining dastlabki kunlaridan boshlab, ularga mustaqil ta'limning zaruriyatini faktlar bilan ilmiy asosda tushuntirish lozim. Albatta, bu jarayon uchun juda muhim ahamiyat kasb etadigan, ya'ni mustaqil ta'limni sifatli bajarishga yordam beruvchi kompyuter texnikasi va uning yangi avlodi imkoniyatlarini samarali qo'llash, shu jumladan, bakalavrlarga zarur bo'lgan xorijiy tillardagi saytlar materiallaridan foydalanish to'g'risida ham ma'lumot beriladi. Talabaga bo'lajak ixtisosligi shakllanishidagi muhim manba, mutaxassislikka oid kitoblar, darslik va o'quv qo'llanmalari, asosiy adabiyotlar to'g'risida dastlabki ma'lumotlar taqdim qilinadi. Buning asosiy maqsadi talabalarga ilmiy metodik manbalar, o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashni o'rgatishdir. Yaponiyaning Nagoya universitetida faoliyat olib borayotgan yurtdoshimiz, professor Alisher Umirdinov shu munosabat bilan quyidagilarni qayd etadi: "Bir paytlar yurtimizda sodir etilgan Renessans nimaga tayanganini bildik. Uni takrorlamoqchi bo'lsak, xususan o'sha – bir paytlar qilingan ish – kitoblar tarjimasidan boshlashimiz kerak. Bu – umummilliy vazifa. Oliy ta'lim vaziri roppa-rosa bir yil oldin aniq fan sohalari bo'yicha kitoblarni tarjima qilish masalasini ko'tarib

chiqqandi. Ammo undan keyin aniq bir harakat, loyiha ishlab chiqilmadi. Umid qilamanki, berilgan va'da bir katta loyihaga aylanadi. Aks holda sifatsiz kadr chiqarishda davom etamiz”<sup>7</sup>.

Toshkent amaliy fanlar universiteti bugungi kunda jadal rivojlanayotgan universitetlar qatoriga kiradi. Mazkur nodavlat universitetning tashkil qilinishi mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida oliy ta'lim rivoji uchun amalga oshirilayotgan islohotlar natijasining yaqqol ko'rinishidir. Alohida qayd etish lozimki, yangi O'zbekistonda inson manfaatlarining yechimiga demokratik islohotlarning bosh maqsadi sifatida qaralmoqda. Bunday keng qamrovli faoliyat bevosita, jamiyatdagi yetakchi ijtimoiy qatlam hisoblangan yoshlarning orzu- umidlarining amalga oshishi bilan bog'liqdir.

## XULOSA

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari orasida malakali kadrlar tayyorlash jarayonida o'ziga xos an'analari, innovatsion ruhi va kelajak uchun aniq maqsadlarni belgilanganligi bilan ajralib turadi. Yoshlar uchun bunday mushtarak orzularning amalga oshishida Toshkent amaliy fanlar universiteti Yangi O'zbekistonda dastlabki tashkil qilingan nodavlat oliy ta'lim muassasalari qatorida faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bevosita rahnamoligi va taklifi asosida ochilgan nodavlat oliy ta'lim muassasalari jadal rivojlanmoqda. Ta'kidlash lozimki, Toshkent amaliy fanlar universiteti mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida ilg'or oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot vazifalarini amalga oshirishga qodir bo'lgan universitetga aylandi. Universitetda faoliyat olib borayotgan, shuningdek, kafedralarda mehnat qilayotgan va talablarga malakali dars berayotgan, samarali ilmiy-tadqiqot o'qituvchilarning ishlarini aksariyati fan olib borayotgan professor nomzodlari, fan doktorlari, professorlardir. Bunday samarali faoliyatning asosiy sabablaridan biri, universitetda o'quv jarayonining xalqaro talablar asosida tashkil qilinganligi, jumladan talabalar mustaqil ta'limining kredit-modul tizimiga mos suratda faoliyat olib borayotganligidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2020, 41 modda.
2. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risidagi Qonuni” Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi Farmoni. Lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017-yil 20-apreldagi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020 – 2025- yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 2020-yil 14-dekabrda qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021-yil 25-dekabrda qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmoni.
10. Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash hamda darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yangilab borish tartibi to'g'risida Nizom. Nashr. 11.O'zbekiston Respublikasi

<sup>7</sup> Umirdinov A. Ilmiy tarjimalarsiz rivojlanish bo'lmaydi. <https://kun.uz/news/2022/06/18/ilmiy-tarjimalarsiz-rivojlanish-bolmaydi>

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktyabrdagi “O‘zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 226-sonli qarori.

12. Oliy ta‘lim muassasasida kechki (smenali) ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta‘limni olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
15. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2021. – 236 bet.
16. Badarch D. Высшее образование США. НИВО, 2001. – 45 s.
17. Basakov M.I. Ot referata do diplomnoy raboty: Rek. studentam po oformleniyu teksta / Basakov M.I. - Rostov n/D, 2015. – 61 s.
18. Abdusalom Umarov, Nazar Hakimov Talabalar mustaqil ta‘limi. Monografiya. Toshkent, 2024, “FIRDAVS-SHOH” nashriyoti. 254 bet.